**Jadidlar izidan-2**

Test kodi: **14850**

1. Kim oʻzining **“Jome’ ul-xutut”** *(“Yozuvlar majmuasi”*) nomli ilmiy asarida jahon yozuvlarining eng ibtidoiysi — piktografik (lotincha pictus — rasm va grekcha grapho — yozaman) yozuvlardan, to shu XX asr boshlaridagi eng mukammal yozuvlargacha bosib oʻtgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi? (32-bet)
A) G’ulom Zafariy
B) Abdurauf Fitrat
C) Is’hoqxon To’ra Ibrat
D) Mahmudxo’ja Behbudiy

2. Kim Behbudiyning ***“Padarkush”*** asari tasirida oʻzi bam 1914 yilda ***“Baxtsiz shogird”*** nomli ilk dramasini yozadi? (65-bet)
A) Is’hoqxon To’ra Ibrat
B) Abdulla Qodiriy
C) G’ulom Zafariy
D) Abdulhamid Cho’lpon

3. Kim sobiq ittifoq hukumati huzuridagi Buxoro jumhuriyati Muxtor vakil- ligi tomonidan **Moskvaga chaqirib olindi** va u yerda chiqayotgan *“Uchqun”* hamda *“Buxarskaya jizn”* kabi vaqtli nashdar ishlariga jalb qilindi? (13-bet)
A) Mahmudxo’ja Behbudiy
B) Abdurauf Fitrat
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

4. 1926-yilda ***“Mushtum”*** jumalida chiqqan **“Yigʻindi gaplar”** maqolasidagi “yuqori rahbarlarga tegadigan qaltis gaplari” uchun, ayrim muttaham hamkasblarining chaquvlari oqibatida adib 1926-yili 8-mart kuni qamoqqa olinadi? (9-bet)
A) Abdulla Qodiriy B) Abdulla Avloniy
C) Abdurauf Fitrat D) G’ulom Zafariy

5. Qaysi asarda **“Yomon xulqlar”** deb nomlangan bob bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi? (57-bet)
A) “Ikkinchi muallim”
B) “Turkiy guliston yoxud axloq”
C) “Afgʻon sayohati”
D) “Maktab gulistoni”

6. Kimning matbuot yuzini koʻrgan ilk asari **“Turkistonli qardoshlarimizga”** deb nomlanuvchi she’ridir. (36-bet)
A) Is’hoqxon To’ra Ibrat
B) Abdulla Qodiriy
C) G’ulom Zafariy
D) Abdulhamid Cho’lpon

7. 1917-yil Fevral inqilobidan soʻng **“Turkiston viloyatining gazeti”** kimning qo'liga oʻtadi. U gazetani ***“Najot”*** deb qayta nomlaydi? ( 123-bet)
A) Mahmudxo’ja Behbudiy
B) Abdulhamid Cho’lpon
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

8. 1913-yildan kim matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan **“Samarqand”** gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki,soʻng toʻrt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi toʻxtagan? (77-bet)
A) Mahmudxo’ja Behbudiy
B) Abdulhamid Cho’lpon
C) Munavvar qori Abdurashidxonov
D) Abdulla Avloniy

9. Kim **yigirma yildan ortiq vaqt davomida** Toʻraqoʻrgʻon va Namanganda xalq qozisi lavozimida faoliyat koʻrsatdi? (95-bet)
A) Is’hoqxon To’ra Ibrat
B) Abdulla Qodiriy
C) G’ulom Zafariy
D) Abdulhamid Cho’lpon

10. Kimning ilk she’ri **“Ey ilm”** nomi ostida 1914-yil **“Oyina”** jurnalida bosilgan? (51-bet)
A) Abdulla Avloniy
B) Abdurauf Fitrat
C) G’ulom Zafariy
D) Munavvar qori Abdurashidxonov

Jadidlar_izidan_testlar

Tast javoblarini tekshirish uchun telegramdagi @sjtbot ga

**14850:abcd……** ko'rinishda jo'nating!

Jadidlar_izidan_testlar